

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TRANSPORT VAZIRLIGI

“O‘ZAERONAVIGATSIYA”
MARKAZI DAVLAT UNITAR
KORXONASI



MINISTRY OF TRANSPORT OF
THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

CENTER
“UZAERONAVIGATION”
STATE UNITARY ENTERPRISE

BUYRUQ
Toshkent sh.

24 dekabr 2025 yil.

704-son

**“2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi
rezident-aviakompaniyalari uchun
tariflarni belgilash to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

2026-yil 01-yanvardan boshlab quyidagilar belgilansin:

1. “Aviakompaniyalar/rezident-kompaniyalarga xizmat ko‘rsatishda yig‘imlarning undirish Tartibi” amaliyotga joriy qilinsin.

2. Quyidagi holatlar bo‘yicha 2025-yil uchun belgilangan darajadagi tariflar qo‘llanilsin:

2.1. O‘zbekiston Respublikasi hududi ichidagi parvozlarni amalga oshiruvchi havo kemalariga aeronavigatsiya xizmati ko‘rsatishda:

- aerodrom hududiga yaqinlashish marshrutida (O‘zbekiston Respublikasi aerodromlariga uchish/qo‘nish) – formula bo‘yicha QQSni hisobga olmagan holda – **87 000,00** so‘m;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan aeroportlardan har qanday jonatishlardagi uchish/qo‘nishni ta‘minlash bo‘yicha havo kemasining maksimal uchish massasining har bir tonnasi uchun QQS hisobga olinmagan holda – **8 500,00** so‘m;

2.2. Xalqaro parvozlarni (O‘zbekiston Respublikasi hududining tashqarisida) amalga oshiruvchi havo kemalariga aeronavigatsiya xizmati ko‘rsatishda:

- aerodrom rayonida havo kengligidan tranzit foydalanishda va yaqinlashishdagi marshrutda (O‘zbekiston Respublikasi aerodromlariga uchish/qo‘nish) formula bo‘yicha QQSni hisobga olmagan holda – **137 532,91** so‘m.

- O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan aeroportlardan har qanday jonatishlardagi uchish/qo‘nishni ta‘minlanish bo‘yicha havo kemasining maksimal uchish massasining har bir tonnasi uchun QQS hisobga olinmagan holda – **13 807,93** so‘m.

2.3. HHXK xabarleri va parvoz-rejalari qayta ishlash uchun (ekipaj/aviakompaniya vakilining muayyan reys bo‘yicha murojaatiga muvofiq – QQSni hisobga olmagan holda – **20 000,00** so‘m.

2.4. Parvoz-axborot xizmatini ko‘rsatish uchun tarif uchish/qo‘nishni ta‘minlash uchun tarifiga tenglashtirilsin.

3. Tariflar O‘zbekiston Respublikasining barcha rezident-aviakompaniyalari uchun yagona tartibda hisoblansin.

4. Ushbu buyruqqa asosan:

4.1. Shartnomalar bo'limi boshligi I.Gafurova:

- aviakompaniyalar/rezident-kompaniyalarning havo kemalariga aeronavigatsiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnoma loyihasini tayyorlashda ushbu buyruq qoidalariga amal qilsin;

- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bilan aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma loyihasini kelishish tartib-taomilini amalga oshirsin;

- kelishish tartib-taomilining jarayoni tugagandan so'ng shartnoma loyihasi va ushbu buyruqni ATBga O'ANM DUK rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun taqdim etsin.

4.2. Axborot texnologiyalari Boshqarmasining boshlig'i A.Klichev ushbu buyruqni hamda Tartibni O'ANM DUK rasmiy saytiga joylashtirsin.

4.3. RIB boshlig'i Ye.Shishmakova 2025-yil moliyaviy yil yakunlangandan so'ng tariflarni hisoblab chiqsin va ularning oshirilishi yuz bergan holatlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirishlarni kiritish bo'yicha tartib-taomilni amalga oshirsin.

5. Umumiy bo'lim (I.Shadmanov) buyruqni O'ANM DUK ning tegishli bo'limlari va boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. O'ANM DUKning 2024-yil 17-dekabrda 686-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning ijro nazorati faoliyati yo'nalishi qismida direktorning birinchi o'rinbosari M.Suleymanov va MIB boshlig'i N.Ananova zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



D. Djumayev

**Aviakompaniyalar/rezident-kompaniyalarga
xizmat ko‘rsatishda yig‘imlarning undirish
TARTIBI**

Ushbu Tartib aviakompaniyalar / rezident-kompaniyalarning havo kemalariga havo kengligida va O‘zbekiston Respublikasi aeroportlariga qo‘nish bilan parvozlarni amalga oshirish jarayonida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun yig‘imlarning undirish qoidalarini belgilaydi.

1-Bob. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA QISQARTMALAR

Tushunchalar:

Aeronavigatsiya xizmatini ko‘rsatish – havodagi harakatni tashkil etish (HHTq), aloqa, navigatsiya va kuzatuv tizimlari (CNS), aeronavigatsiyaning meteorologik ta‘minoti (MET), qidiruv va qutqaruv (SAR) hamda aeronavigatsiya axborot xizmatlari (AAX) xizmatlarning turkumi tushuniladi. Ushbu turdagi xizmatlar parvoznig barcha bosqichlarida havodagi harakat uchun (yaqinlashish, aerodrom dispetcherlik xizmati va marshrut bo‘ylab dispetcherlik xizmati) taqdim etiladi.

Aeronavigatsiya xizmatlari – ekspluatantlar havo kemalarinning havodagi harakatiga quyidagi turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash:

- O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududida havo kemalari parvozlarga aeronavigatsiya xizmati ko‘rsatish (tranzit foydalanishda);
- aerodrom hududida havo kemalariga aeronavigatsiya xizmati, shu jumladan marshrutda (yaqinlashish zonasida) va uchish-qo‘nishni ta‘minlashda xizmat ko‘rsatish.

Havo kemasining maksimal uchish og‘irligi (MTOW) – ikki o‘nlik kasrgacha yaxlitlangan tonnalarda ifodalangan havo kemani sertifikatlangan uchish og‘irligi.

Havodagi harakatga xizmat ko‘rsatish (HHXK) – ushbu atama tegishli holatlar bo‘yicha parvoz-axborot xizmati, avariya ogohlantirishi, havodagi harakat uchun maslahatlar berish xizmati, havodagi harakatga dispetcherlik xizmatini ko‘rsatish (rayon dispetcherlik xizmati, yaqinlashishda dispetcherlik xizmati yoki aerodrom dispetcherlik xizmati) bildiradi.

Parvoz rejasi (flayt-reja) – havodagi harakatni boshqarishni vakolatli organiga rejalashtirilayotgan parvoz yoki havo kema parvozinig muayyan bir qismi to‘g‘risidagi belgilangan ma‘lumotlar.

Aerodrom rayoni – aerodrom ustidagi hamda gorizonta va vertikal tekisliklarda belgilangan chegaralardagi tutash havo bo‘shligi;

Ortodromiya bo'yicha masofa – katta aylananing ikki nuqtasini bog'lovchi eng qisqa yoyining uzunligi.

Yig'im – fuqarolik aviatsiyasi uchun vositalar va xizmatlarni taqdim etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun bevosita belgilangan va undiriladigan qiymat miqdori.

Ekspluatant sertifikat – ekspluatantga havo transportida belgilangan tijorat tashishlarni amalga oshirish uchun ruxsat beradigan sertifikat.

Maxsus aviatsiya ishlari (CAP) – maxsus xizmat turlarini ta'minlash uchun havo kemasidan foydalangan holda amalga oshiriladigan parvozlarning quyidagi turlari tushuniladi: havodagi suratga olish; o'rmon-aviatsiya ishlari; transport-aloqa ishlari; aholiga tibbiy yordam ko'rsatish va sanitariya tadbirlarini o'tkazish bo'yicha ishlar; eksperimental va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish; o'quv-mashg'ulot parvozlari; nazorat-sinov va nazorat parvozlari; aviatsiya-kimyoviy ishlar; parashyutchilarni desantlash; ekskursiya parvozlari.

Tarif – belgilangan birlik uchun narx.

Tsirkulyar parvozlar – aynan bir aerodromda boshlanadigan va tugaydigan parvozlar (oralik qo'nishsiz).

Havo kemasining ekspluatanti (ekspluatant) – ekspluatant sertifikat bilan tasdiqlangan HKdan foydalanish qobiliyati bo'yicha mulkiy huquq yoki boshqa mulk huquqlari asosida HKlarga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Qisqartmalar:

DEP / ARR – uchib ketish / qaytib kelish vaqti

HK – havo kemasi

HHXK – havodagi harakatga xizmat ko'rsatish

O'ANM – “O'zaeronavigatsiya” Markazi DUK

STS/ – havodagi harakatga xizmat ko'rsatish organlari tomonidan alohida munosabat sababini ifodalaydigan belgi

HEAD – havo kemasiga “A” harfli (alohida muhim parvozni amalga oshirish) maqomni berilganligining belgisi.

2-Bob. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Aeronavigatsiya yig'imi barcha foydalanuvchilardan ularning mulkchilik shakllari va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspluatant sertifikatiga ega bo'lgan, havo kengligida va O'zbekiston Respublikasi aerodromlariga qo'nish bilan amalga oshirilgan har bir parvoz uchun undiriladi.

2.2. Aeronavigatsiya yig'imi quyidagilardan tarkib topgan:

- havo kengligidan tranzit foydalanishdagi marshrutda aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'im;

- aerodrom rayoniga yaqinlashishdagi marshrutda aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'im;

- aerodrom rayonida (uchish/qo'nishni ta'minlash uchun) aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'im.

2.3. Aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'implar O'zbekiston Respublikasining 03.07.2023-yildagi O'RQ-850-sonli Qonuni, fuqaro aviatsiyasida qabul qilingan talab va qoidalarga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

2.4. Aeronavigatsiya yig'implari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda o'rnatiladi va e'lon qilinadi.

2.5. O'zbekiston Respublikasining aeroportlari va havo kengligida havo kemalariga xizmat ko'rsatish uchun aeronavigatsiya yig'implari ichki va xalqaro tashishlarni amalga oshiruvchi havo kemalari uchun differensatsiyalangan holda belgilanadi. Bunda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tariflar barcha aviakompaniyalar uchun yagona tartibda belgilanadi.

3-Bob. AERONAVIGATSIYA XIZMATINI KO'RSATISH UCHUN YIG'IMLARNI SHAKLLANTIRISH

3.1. Havo kengligidan tranzit foydalanishda va aerodrom rayonining yaqinlashish zonasida (O'zbekiston Respublikasi aerodromlariga uchish/qo'nish) marshrutida aeronavigatsiya xizmatini korsatish uchun yig'im Evrokontrol tizimi bo'yicha belgilanadi hamda ichki va xalqaro parvozlarda uchun differensatsiyalangan holda ortodrom masofasining 100 kilometrda HKning og'irlik omiliga bog'liq bo'ladi.

Yig'implar kattaligini hisoblash formulasi quyidagicha: $R = T * D * W$, bunda

R - yig'implar kattaligi;

T - bir birlik uchun tarif;

D - O'zbekiston Respublikasi havo kengligining kirish nuqtasi va chiqish nuqtasi ortodromik masofasining 100 kilometr soniga bo'lish orqali hisoblab chiqiladigan va ikki o'nlik belgisigacha yaxlitlanadigan masofa omili;

W – HK og'irlik koefitsienti, quyidagicha hisoblanadi:

Kvadrat ildiz (MTOW / 50)

3.2. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan aeroportlardan/aeroportlarga har qanday turdagi jo'natishlarda uchish/qo'nishni ta'minlash uchun aeronavigatsiya yig'imi tarifni ichki va xalqaro parvozlarda uchun differensatsiyalangan holda **MTOWga ko'paytirish** yo'li bilan aniqlanadi.

4.-Bob. MAXSUS AVIATSIYA ISHLARI

4.1. **CAP** bajarilayotganda havo kemalariga aeronavigatsiya xizmati uchun yig'im ushbu Tartibning 3.1 va 3.2. bandlariga muvofiq masofaga asosan amalga oshiriladi.

4.2. Operativ nuqtalardagi ishlarda aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'im ishning har bir kuni uchun ushbu operativ nuqtadan birinchi uchish va oxirgi qo'nish uchun undiriladi.

Bir operativ nuqtadan boshqasiga parvozni amalga oshirish paytida aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'im ushbu Tartibning 3.1 va 3.2. bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.3. Marshrut bo'yicha masofa tasdiqlangan havo trassalari va MHY marshrutlari Ro'yxatiga muvofiq belgilanadi. Parvoz marshruti tasdiqlangan trassadan yoki MHY trassasidan tashqarida bo'lgan holatlarda masofa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $S = V_{kpi} * t_n$, bunda

S – masofa;

V_{kpi} – HK parvoz rejasida ko'rsatilgan tezlik;

t_n – parvoz vaqti.

4.4. O'quv-mashg'ulot parvozlari va HKlarni parvoz etib uchib o'tishda, agar:
- oraliq qo'nish va keyingi uchib ketish o'rtasida vaqt oralig'i 10 minutdan kam, shuningdek DEP/ARR mavjud emas, yig'im birinchi uchib ketish va oxirgi qo'nish uchun amalga oshiriladi;

- oraliq qo'nish va keyingi uchib ketish o'rtasida vaqt oralig'i 10 minutdan oshganda va DEP/ARR mavjud emas, uchish va qo'nish uchun yig'im belgilangan tariflar bo'yicha ushbu Tartibning 3.1 va 3.2. bandlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5. Aviatsiya-kimyoy, qurilish-montaj, yuklash-tushirish ishlarini bevosita bajarishda, eksperimental va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishdagi marshrutlarda aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'im undirilmaydi.

5-Bob. FLAYT-REJALARI VA HHXK XABARLARINI QAYTA ISHLASH XIZMATLARI

5.1. Flayt-rejalar va HHXK xabarlarini qayta ishlash faqat havo kemasi ekipajining (aviakompaniya vakili) murojaatiga binoan amalga oshiriladi.

5.2. To'lovlar ushbu parvoz uchun qayta ishlangan parvoz rejalari va/yoki HHXK xabarlarini sonidan qat'iy nazar HK ekipaji (aviakompaniya vakili) murojaati bo'yicha flayt-rejasi va/yoki HHXK xabari uchun belgilangan tarifga muvofiq amalga oshiriladi.

6-Bob. YIG'IMLARDAN OZOD QILISH

6.1. Aeronavigatsiya xizmatini ko'rsatish uchun yig'imlarning to'lanishidan qidiruv-qutqaruv ishlarini bajarish, tabiiy va texnogen turdagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda gumanitar yordam ko'rsatishda ishtirok etuvchi HKlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining havo kemalari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod etiladi.

6.2. Quyidagi toifadagi parvozlarda marshrut bo'ylab aeronavigatsiya xizmatlarini ko'rsatish yig'imlaridan ozod qilinadi:

- tsirkulyar parvozlarda – texnik sabablarga asosan HK qaytarilgan taqdirda;

- davlat rahbarlari va Hukumat rahbarlarining rasmiy tashriflarining parvozlari. Barcha holatlarda bu parvoz rejasida parvozning tegishli maqomi ko‘rinishida belgilanishi kerak – davlat rahbari (STS/HEAD).

7-Bob. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. O‘ANM DUKning barcha manfaatdor boshqarmalari, bo‘limlari va xizmatlari tomonidan ushbu Tartibning qoidalarini ijro etilishi majburiy.

7.2. Ushbu Tartibning qoidalariga rioya qilmagan aybdor shaxslarga nisbatan O‘ANM DUKning ichki local hujjatlariga muvofiq javobgarlik belgilanadi.

